

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur SSV huzuridagi Tibbiyot va farmasevtika uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025 yil 14 avgustdagi №MMO-211 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2027 yil avgustgacha.

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kafedra/ bo'lim	Ichki kasalliklar			
O'quv dastur nomi	Birlamchi bo'g'in shifokorlari amaliyotida ichki a'zolar kasalliklarida EKG o'zgarishlar.			
O'qish turi	Mavzuiy malaka oshirish			
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Ibragimov A.Yu., Maksumova M.G., Kurbanova F.R., Usmanova D.U.			
Siklning umumiy soati	72 kredit			
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar				
				
T.f.d, professor Ibragimov A.Yu.	T.f.d, professor Kayumov U.K.	T.f.n., dotsent Maksumova M.G.	T.f.n., dotsent Xatamova D.T.	T.f.n., dotsent Musaeva Sh.Z.
				
T.f.n., dotsent Saipova M.L.	Assistent Ziyamuxamedov a M.M.			

Maqsad	Birlamchi bo'g'indagi shifokorlar elektrokardiogramma bo'yicha nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, yangilash, terapevtlar va barcha tor soha mutaxassislari amaliyotida keng uchraydigan terapevtik kasalliklarda EKG o'zgarishlarini aniqlash, klinik belgilari bilan taqqoslash, davolashning zamonaviy tamoyillarini o'rgatish, nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini yangilash.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Respublika viloyat, shaxar, tuman shifoxonalari va poliklinikalari, kunduzgi stasionar, tez yordam shifokorlari, sanatoriy profilaktoriy, sanator-kurort va boshqa tibbiy muassasalar vrachlari, terapevtlar, UASH va barcha tor yo'nalishdagi davolash vrachlari
Sikl vazifalari	Pulmologiya: O'pka kasalliklarining obstruktiv turlarida: surunkali obstruktiv o'pka kasalligi, bronxial astma, o'pka arteriyasining tromboemboliyasi klinik tashxisida EKG dagi o'zgarishlarini aniqlash va boshqa instrumental tekshiruv natijalari bilan farqlay olishlari lozim. Revmatologiyada: o'tkir revmatik isitma, revmatik nuksonlar, revmatoid artrit kasalliklarida zamonaviy klassifikasiya, klinik kechishi, EKG dagi o'zgarishlarni, ExoKG, doplerografiya, rentgen, laborator tekshiruv natijalarini to'g'ri interpretasiya qilish va baholash, bazis terapiya bo'yicha bilimlarini yangilash. Kardiologiyada: arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, surunkali yurak etishmovchiligi kasalliklarining yangi tasnifi o'rganish, klinikasi va EKG dagi o'zgarishlarini solishtirish, Xolter monitoringi natijalarini taxlil qila olish va klinika bilan taqqoslash, birlamchi yordam ko'rsatish, zamonaviy, standartlar asosida davolash tamoyillarini shakllantirish. Endokrinologiyada: qandli diabet, Giperteroz, giperteroz kasalliklarni zamonaviy tasnifi bo'yicha tashxisni qo'yish, klinik kechuvini EKGdagi o'zgarishlar bilan solishtirish va davolash chora tadbirlarini standart asosida yo'lga qo'yishni bilish

Sikl tarkibi	1 modul. O'pka kasalliklarni aniqlash va ularda EKG o'zgarishlari 2 modul. Revmatik kasalliklarini olib borishda EKGdagi o'zgarishlarini tahlili 3 modul. Ichki kasalliklar amaliyotida yurak kasalliklarda EKGni echim talqinlari 4 modul. Endokrin kasalliklarda EKGdagi o'zgarishlarini tashxisi, davolash mezonlari
---------------------	--

O'qish bazalari

1. Ibn Sino nomli Shahar 1-son klinik shifoxonasi. Toshkent shahri Shayxontohur tumani Mannon Uyg'ur ko'chasi 40 uy.



Simulyatsion asbob/uskunalar

